



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

2024- yil “29” aprel

BUYRUQ № 62

Toshkent sh.

**Tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy faoliyat turi va korxona
turini yillik statistik hisobotlar ma’lumotlari asosida o‘zgarganligi
to‘g‘risidagi xabarnomani avtomatlashtirilgan holda yuborish
bo‘yicha tartibni tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114-son qarori ijrosini ta’minlash, statistika organlari va tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida o‘zaro axborot almashishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining zamonaviy usullarini joriy etish mexanizmini takomillashtirish, shuningdek, tadbirkorlik subyektlariga avtomatlashtirilgan tizim asosida ularning asosiy iqtisodiy faoliyat turi va korxona turi (mikrofirma, kichik, boshqa) to‘g‘risida o‘z vaqtida xabar berishni tashkil etish maqsadida, **buyuraman:**

1. “Tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy faoliyat turi va korxona turini yillik statistik hisobotlar ma’lumotlari asosida o‘zgarganligi to‘g‘risidagi xabarnomani avtomatlashtirilgan holda yuborish bo‘yicha tartib” ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. “O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2020- yil 25- dekabrda “Tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy faoliyat turi va korxona turini yillik statistik hisobotlar ma’lumotlari asosida o‘zgarganligi to‘g‘risidagi xabarnomani avtomatlashtirilgan holda yuborish bo‘yicha tartibni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 50-son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

3. Mazkur buyruq tasdiqlangan kundan e’tiboran kuchga kiritilsin.

Direktor

B. Begalov